

**ISROIL SUBHONNING YANGI BADIY SHAKL YO`LIDAGI
IZLANISHLARI**

Tashova Dilorom Salimovna

f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: ushbu maqolada mustaqillik davri she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalgan, jumladan, buxorolik ijodkor Isroil Subhon qalamiga mansub shashqator va zarbulg'azal badiiy shakllarining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan va ushbu ijod namunalaridan badiiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: badiiy shakl, shashqator, otililik, g'azal, zarbulmasal, zarbulg'azal, muqaddima, xotima.

Adabiyotshunos I.Sulton aytganiday: “Ijodiy jarayon aslida haqqoniy, ya’ni salmoqdor mazmunni yorqin ifoda etishga qodir shaklni axtarishdan iborat” [6,144]. Darhaqiqat, istiqlol davri o‘zbek she’riyatida shoirlarning ijodiy-individual izlanishlari natijasida fikr-kechinmani badiiy ifodalashning yana bir qator yangi ko‘rinishlari yuzaga keldi. Jumladan, beshlik (R.Parfi), beshnavo (A.Nabi), shashqator, zarbulg'azal (I.Subhon), otililik (G'.Mirzo) kabilar bu qatorni to‘ldirib turadi. Bularning har biri spetsifik jihatlarga ega.

So‘nggi yillar o‘zbek she’riyatidagi yangilanishlardan yana biri – shashqator badiiy shaklida asarlarning yozilishidir. Bu jihatdan Isroil Subhoniy individual-ijodiy izlanishlari natijasi sifatida reallik kasb etgan shashqatorlar e’tiborga loyiq. Darhaqiqat, nomlashda ham, asosan, Buxoro adabiy harakatchiligiga xos ko‘p asrlik zullisonaynlik an’analari aks etgan. Ya’ni shashqator fors-tojik tilidagi “shash” – olti, arabcha “qator” so‘zi bilan birikib, “olti qator she’r”, “oltilik” – to‘rt voqeaband misra va o‘zaro qofiyalangan bir xulosa baytdan iborat she’riy shakl hisoblanadi. Ularda yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat, ma’naviy yuksaklik va tubanlik kabi umumbashariy muammolar bilan bir qatorda shoir

ko‘nglidan o‘tgan kechinmalar, uning o‘y-fikrlari ham o‘zining badiiy ifodasini topgan. Shoirning o‘zi ta’kidlaganidek, uning shashqatorlarida yoshligidan sevib o‘qigan, yodlab olishga tirishgan fors-tojik mumtoz adabiyotining vakillari: Rudakiy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Sa’diy, Rumiy, Hofiz, Bedil g‘azal, ruboiylaridan ta’sirlanish, ularning baytlariga hamohanglik sezilib turadi. Shu bilan birgalikda, Isroil Subhoniy o‘zining falsafiy qarashlari, teran mushohadalari, qalb tug‘yonlarini ham misralarida badiiy ifodalagan:

Shash qatorim menin, oh, nomam menin!

“Shashqator”im menin – “Ohnoma”m menin!

Shash “maqom”im menin, shoh nomam menin,

“Shashmaqom”im menin, “Shohnoma”m menin!

“Ming bir kecha” to ‘kdim – ming bir tomchi yosh,

Derlarki, qatrada aks etar quyosh [4,6].

Yuqorida keltirilgan shashqator shoir kitobiga debocha tarzida yozilgan. Mumtoz adabiyotda debochalarda shoirning she’riyatga bo‘lgan qarashlari, ijodining asosiy yo‘nalishlari haqida yoziladi. Shoir o‘zining debochasi bilan ma’lum ma’noda kitobxonni she’rlarini o‘qishga, uning ma’no-mohiyatini tushunishga ruhan tayyorlaydi. Isroil Subhoniy she’rida ham shashqatorlarini ko‘nglidan chiqqan ohlariga o‘xshatadi. Shoir uchun o‘zining she’rlari “Ohnoma”, “Shohnoma”, “Ming bir kecha”, “Shashmaqom” kabi buyuk va nodir asarlar qatorida turadi. Chunki unda shoir qalbidagi barcha tug‘yon-kechinmalar, orzu-umidlar, armonlar aks etgan. Misralarda ham tajnis orqali shoir fikrlari badiiy ifodalangan: shash qator – “Shashqator”, oh, noma – “Ohnoma”, shash “maqom” – “Shashmaqom”, shoh noma – “Shohnoma” kabi. So‘nggi bayt shashqatorning xulosasi sifatida keltirilgan.

“Shashqator” so‘zining lug‘aviy ma’nosи uzluksiz, shoda-shoda to‘kilayotgan ko‘z yoshi ma’nosida ham keladi. Shoir iyhom san’ati vositasida “shashqator” so‘zi orqali ham otilikdan iborat she’rlarni, ham yuragidan to‘kilayotgan ko‘z yoshlarni

misralarga jo qilgan. Tomchida quyosh aks etganidek, shoir shashqatorlarida ham yuqorida nomi sanab o‘tilgan buyuk asarlardagi fikrlardan qatralar ifoda etilgan. Xulosaviy baytda biz fors-tojik adabiyotining buyuk vakili Mirzo Abdulqodir Bedil g‘azallaridan ta’sirlanishni sezamiz:

Mohiyat, mohiyat, teran mohiyat...

Bir kuy chertmoq uchun sozlangan rubob.

Kitoblar har yoqqa sudraydi, faqat

Qalbim – dunyodagi eng dilbar kitob!

Olamning oftobi bitta bo‘ladi,

Odamning “kitobi” bitta bo‘ladi. [4,7]

Inson bu dunyoga kelar ekan, butun hayoti davomida yashashidan, hayot kechirishidan maqsadini, umrining mazmun-mohiyatini topishga intiladi. Mohiyat haqiqat, tabiatning, har narsaning asli demakdir [1,322]. Insonning qanday yashashi kerakligi haqida juda ko‘p allomalar, faylasuflar, buyuk mutafakkirlar o‘zlarining fikrlarini bildirganlar. Bu fikrlar qanchadan qancha kitoblarning bosh g‘oyasi bo‘lgan. Biroq shoirning fikricha, inson umri mazmunini, mohiyatni kitoblardan emas, balki qalbiga qulq solib, o‘zidan axtarishi lozim. Shoir tashbeh san’ati orqali ko‘ngilni dunyodagi eng dilbar kitobga mengzaydi. Mana shu yakka-yu yagona kitobda inson o‘zligini, mohiyatini topadi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham “Lison ut-tayr” dostonida: “O‘z vujudingg‘a tafakkur aylag‘il, Har ne istarsan, o‘zingdin istagil”,[2,301] – deya mana shu fikrga mos baytni keltirgan. Olamda quyosh bitta bo‘lganidek, insonda ham ko‘ngil yagona bo‘ladi.

Bor-yo ‘g‘i havasdan iborat dunyo,

Zamiriga boqsang yana bulhavas.

Barchasi ostida aslida ro‘yo,

Biz o‘ylagan kabi haqiqat emas.

Ko‘zgudagi “quyosh” – qalbaki, tuzoq:

Haqiqiy quyoshdan onqadar uzoq. [4,8]

Ushbu shashqatorda shoir bu dunyoning o‘tkinchiligi, hayotning abadiy emasligi haqida fikr yuritadi. Olamning mohiyati ham ro‘yo kabitidir. Biz intilgan dunyoning ostida aslida kutganimiz narsa yo‘q. Dunyoning bevafoligi, o‘tkinchiligi haqida juda ko‘plab shoirlar asarlarida, she’rlarida yozganlar. Isroil Subhoniy ham bu misralar orqali insonlarni dunyoga, boylikka aldanib qolmaslikka chaqiradi va bunga hayotiy misol qilib ko‘zgudagi quyoshni keltiradi. Ko‘zgudagi quyosh aslida quyoshning o‘zi emas, faqatgina aksi xolos. Haqiqiy quyosh esa bizdan qanchalar uzoq masofada ekanligini tasavvurga ham sig‘dira olmaymiz. So‘nggi baytda irsoli masal san’atining yorqin namunasini ko‘ramiz. Shoir bu qadim masala haqida o‘zining qarashlarini ohoriy shaklda bera olgan. Bu shashqator badiiy jihatdan ham, tarbiyaviy jihatdan ham yetuk asardir.

Oq ko ‘ylakka nechun o ‘ch bo ‘ladi kir,

Alvon-alvon rangli liboslar aro?

Oq yurakka nechun o ‘ch bo ‘ladi tir?

Nishon bo ‘lardimi bo ‘lganda qaro?

Tanbur “qulog ‘i”ni burarlar nega?

Bir “ayb ”i shu: yuksak maqomga ega. [4,8]

Hamma zamonlarda ham oqko‘ngil, vijdonli insonlar qadrlanib kelgan. Lekin shu bilan birga, bunday insonlar yomon niyatli kishilarining otgan toshlariga, o‘qlariga nishon bo‘lganlar. Nasimiyning tovonidan so‘yilishiga, Mashrabning dorga osilishiga, yoinki Cho‘lpon, Fitrat, A.Qodiriylarning shahid bo‘lishlarida mana shunday insonlarning “xizmat”i katta emasmi? Nega bu dunyoda faqat vijdonli, halol odamlar shunday “o‘q”larga nishon bo‘ladi? Nima sababdan iste’dodli, el orasida obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan insonlarga hasad bilan boqib, ularni badnom qilishga intilish johil kimsalarning hayotdagi asosiy maqsadiga aylanib qolgan? Shoirning shashqatoridagi shunday o‘y-fikrlar tug‘yonи unga tinchlik bermaydi. U o‘z savollariga javob axtaradi.

Muhammadsharif Gulxaniy o‘zining “Zarbulmasal” asari bilan mashhur. “Zarbulmasal” Umarxonning amri, istagi bilan yozilgan bo‘lib, u xalq orasida keng tarqalgan zarbulmasallarni – xalq maqollarini yig‘ib, kitob holiga keltiradi. “Zarbulmasal” so‘zi “zarb” va “masal” so‘zlarining qo‘shilmasidan iborat bo‘lib, adabiy atama sifatida masal, maqol, matal keltirib so‘zlamoqlikni anglatadi. Isroil Subhon o‘zining zarbulg‘azallari haqida shunday deydi: “Zarbulg‘azal” – arabcha “g‘azalnamo lof urish” ma’nosida – barmoq vaznidagi “g‘azal” turi bo‘lib, a-b-a-b shaklida qofiyalangan 3 band va v-v shaklida ohangdosh bo‘lib kelgan bir baytdan iborat. Aruz vaznidagi g‘azalchilik an’analari, jumladan, xotima baytdagi taxallusni zikr etish qoidasi saqlab qolinadi” [5,2]. Demak, shoir bu shaklni yaratishda g‘azalchilik an’analariga ergashgan. Shu bilan birga zamonaviy she’r yutuqlariga ham tayangan.

Lab ustiga qo‘ndirilgan xolingdan, o‘zim!

Bu xol desam, shu xoling ham uchragan ekan:

Ishqingda qon bo‘lib ketgan jigari so‘zim

Uchqun kabi labing uzra sachragan ekan [5,15].

Bu misralarda mumtoz g‘azaliyotdagi kabi ma’shuqaning qoshi, ko‘zi, yuzi, xolini ta’riflash orqali yor go‘zallagini ta’riflash ruhi yetakchi. Yuqoridagi satrlarda xol tasvir etilgan. U “lab ustiga qo‘ndirilgan” tarzida berilgan. A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Kumush portretida shunga yaqin ifoda bor: “... latif burnining o‘ng tomonida tabi’atning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilgan qora xoli...” [3,28]. Demak, shu orqali yorni go‘zal qilib turgan xol haqida so‘zlaydi. Oshiq ishqidan ozorlangan – “jigari qon bo‘lib ketgan”. Bu tasvirdagi yana bir ohorli jihat – lab uzra joylashgan xol jiga dan sachragan uchqunga qiyoslangan.

Shu bir qatra qonimni sen atasang “xol” deb,

Men ham o‘sha atab turgan tilingdan o‘pay!

Yashirinib olsang agar – “xol”ingdan tanib

Ming bir suluv orasidan qidirib topay. [5,15]

Bu misralarda ham xol ta'rifi davom etgan. Lirik qahramon – oshiq sevgilisini ming bir suluv ichidan topishga tayyor. Bunga ham uni boshqalardan o'sha lab ustiga qo'ndirilgan xoli ajratib turadi.

*Qaro xoling tasviriga ming bir Hofiz kam,
Baxsh etsa ham bira to 'la beshta qit'ani.
Jamoliningni chizar ekan Xoliqu akram
Labing uzra qo 'ygan ekan so 'nggi nuqtani. [5,15]*

Yuqoridagi misralar Hofiz Sheraziyning :

Agar ko 'nglimni shod etsa, o 'shal Sherazi jononi,

Qaro xoliga baxsh etgum Samarqand-u Buxoroni [7] – degan satrlariga hamohang jaranglaydi. Dastlabki satrdayoq shu g'azalga ishora qilinadi va talmeh yaratiladi. Shoир mubolag'a qiladi: u kuylayotgan go'zalning xoli ming bir Hofiz madh etgan xoldan ham chiroyli. U tabiatning, Yaratganning ma'shuqani go'zal qilish uchun qo'ygan so'nggi nuqtasi. Mumtoz g'azaliyotda nuqtaning xolga o'xhatilishi ko'p asrlik an'ana. I.Subhon ham shu an'anaga ijodiy yondashgan.

Faqir esa shul "nuqta" dan boshlaydi "ijod",

Avval nuqta, so 'ng harf ila chiqadi savod. [5,15]

Lirik qahramon – shoир uchun o'sha "nuqta" – xol ilhom manbai. Keyingi misrada iyhom qilingan: nuqta, avvalo, xolni, keyin esa bir vaqtning o'zida tinish belgini ifodalab keladi. Nuqta orqali savod chiqishiga ham ishora qilinadi.

Shoirning navbatdagi zarbulg'azalida yorning sochi tasvir, tahlil obyekti hisoblanadi.

Sochmi bu, yo 'q soch emas bu, soch bo 'lmasa ne?

Balki to 'fon, Nuh to 'foni – to 'zg 'igan faryod?!

Og'ushimga suron solib, hu deb kirgani

Yo 'q, soch emas, sochilgan o 'q – Lashkari sayyod.

Istig 'noli xush islari shirin tush kabi

Yetti zangor osmonimni to 'ldirdi gulga.

Shunda momiq xayollarim ukpar qush kabi

Kokiling in gumon aylab, tushdi zanjirga.

Ay, bo 'ldi bas, ayta qol, kim, paymona to 'lgan,

Axir, o 'zi bisotimda bir dona yurak.

Bu dunyoda sochlarining deb sochlarin yulgan

Mening kabi bir Devona bo 'lmasa kerak. [5,19]

Shoir yor sochlarini ilhom manbaiga qiyoslaydi. Yorning shabadada sochilgan sochlari oshiqning xayollarini har tomonga tarqatib yuborgani, ukpar qush kabi uchib ketgani ifodalangan. Lirik qahramon o'zini bu dunyoda yorning sochlarini deb o'z sochlarini yulgan tanho oshiq deb biladi.

“Zarbulg‘azal turkumida esa muqaddimaband va taxallus zikr qilingan xotima band ilova qilinadi” [5,2].

Tangri seni, gulim, oh-oh, qandoq yaratmish!

O 'zi qandoq tanho bo 'lsa – andoq yaratmish!

Qiyosing yo 'q desam: “Undoq-bundoq yaratmish”,

O 'zing qandoq bo 'lsang, xuddi shundoq yaratmish.

Bu misralar zarbulg‘azal turkumiga kirish band bo‘lib, muqaddima vazifasini bajargan. Bu kirish band bilan shoir yorga murojaat qiladi va turkum unga atalganiga ishora qiladi.

Bu ulkan ishq dunyosida shunchaki havas,

Men ham sevdim o 'z holimcha – haqir, pinhoniy.

Sen Shomiram, Bibixonim, Ruxshona emas

Va men ham o 'z nomi bilan – Faqir Subhoniy! (19-b.)

Yuqoridagi to‘rtlik zarbulg‘azallar turkumini xotimalovchi band hisoblanadi.

Isroil Subhon o'z zarbulg‘azallarini Faqir taxallusi ostida yozadi. Shoir “zarbulg‘azal” turkumida 7 ta zarbulg‘azal keltiradi va ularning barchasida yorning, ya’ni ma’shuqaning ko‘zi, labi, xoli, kulgichi, qoshi, zulfi, sochini madh etadi hamda ular oshiqni ne ko‘ylarga solganini poetik ifodalaydi.

Mustaqillik davri she'riyatida buxorolik ijodkor Isroil Subhon ham qator yangicha badiiy shakllarda ijod qildi. Shashqator va zarbulg'azal shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Навоий асарларининг изоҳли лугати. II том, – Т.: Фан, 1983. – Б. 322.
2. Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 12-том, – Тошкент: Фан, 1996. – Б.301.
3. Қодирий А.Ўткан кунлар. Роман. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б.28
4. Субҳон И. Шашқатор. – Бухоро, 2019. – Б.6.
5. Subhoniy I. Zarbulg`azal. – Buxoro, 2011. – B.2.
6. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Т.: O`qituvchi, 2005. – B.144.
7. <https://ziyouz.uz/>